

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI” DARS MASHG’ULOTLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

OYBEK TO’RAQULOVICH MURODOV

“OSIYO XALQARO UNIVERSITETI”

“Umumtexnik fanlar” kafedrası assistent o’qituvchisi

Annotatsiya: maqolada bugungi kunda ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarga, darslarni o’qitishning faol usullarini qo’llab tashkil etish muammolarining yechimi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: axborot texnologiyalari, tarbiya, taqdimot, multimedia, videolavha.

Аннотация: в статье содержится информация о решении проблем организации уроков с использованием современных педагогических технологий и активных методов обучения в современном образовании.

Ключевые слова: информационные технологии, образование, презентация, мультимедиа, видео

Abstract: The article provides information on the solution to the problems of organizing lessons using modern pedagogical technologies and active teaching methods in education today.

Keywords: information technology, education, presentation, multimedia, video.

Kirish. AQSh va Yevropa mamlakatlarida «ta’lim texnologiyasi» sifatida e’tirof etilgan nazariya bo’lib, uning yaratilishi to’g’risida ma’lumot beruvchi manbalarni o’rganish natijalari shuni ko’rsatdiki, ta’lim tizimini pedagogic texnologiyalar asosida tashkil etish g’oyasi o’tgan asrning boshlarida g’arbiy Yevropa hamda AQShda ta’lim tizimini isloh qilish, ta’lim samaradorligini oshirish, shaxs ijtimoiylashuvini ta’minlash va bu borada muayyan muvaffaqiyatga erishish borasidagi ijtimoiy ehtiyojni qondirishga urinish natijasida vujudga kelgan.

Asosiy qism. Shu narsa ma’lumki, an’anaviy ta’lim mazmuninig asosi shundan iboratki, pedagog bu jarayondagi avtoritar mavqei, ta’lim jarayoni o’quvchilarning sust faoliyati asosiga qurilgan bo’lib, dars uchun ajratilgan vaqtning asosiy qismi pedagoglar tomonidan muhim nazariy ma’lumotlarni bayon etishga sarflanar, o’quvchilarning faolligini ta’minlashga zaruriyat sezilmasligini ifoda etardi.

O’tgan asrning 60-yillarida ta’lim faoliyatini avvaldan puxta ishlab chiqilgan dastur g’oyalari muvofiq tashkil etish tashabbusi ko’tarildi. Dasturlashtirilgan ta’lim o’quvchi muayyan bilimlarni qismlarga bo’lib hal etilishi asosida axborot texnologiyalari darslarini tashkil etishni nazarda tutadi. Dasturlashtirilgan ta’lim mazmunida uning maqsadlari, baholash mezonlari ona tili darslari mohiyatining aniq tavsifini ko’rsatuvchi ko’rsatgichlar ekanligiga alohida o’rin ajratildi.

Rivojlangan mamlakatlarda bu sohada boy tajriba to’plangandir. Pedagogik texnologiyalar mohiyatini to’laqonli anglash uchun mazkur iboraning lug’aviy ma’nosini tushunib olish taqozo etiladi.

Axborot texnologiyalari darslarining samaradorligini oshirish ta’lim-tarbiya jarayonini davr talabi darajasida yangi pedagogik texnologiyalar, texnik hamda axborotli vositalar bilan qurollantirishni taqozo etadi. Axborot texnologiyalari darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish mazkur jarayonning nazariy-amaliy qirralarini tadqiq etish, maxsus ishlanmalar yoki tavsiyanomalarning yaratilishini talab etadi.

Ta’lim tizimida innovatsion jarayonlar samaradorligi oshirishda innovatsion ta’lim texnologiyalardan foydalanish innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etish shart-sharoitlariga, ta’limning an’anaviy usullari bilan maqsadga muvofiq ravishda uzviy qo’llashga bog’liq. Ayrim

hollarda samarali bo'lgan an'anaviy usullardan voz kechish holatlari sodir bo'lmoqda. Bu innovatsiyalarni tajribada sinalgan va ijobiy natija berib kelayotgan o'qitishga qarshi qo'yishdek sezilmoqda. Shuning uchun ham an'anaviy ta'lim tizimidagi ijobiy tajribalarni innovatsiyalarga uyg'unlashtirish maqsadga muvofiq.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida innovatsion ta'lim texnologiyalarni qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Innovatsion yondashuv ta'lim-tarbiya jarayonida mashg'ulotlarni qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Innovatsiyalarning samaradorligini aniqlashda o'qituvchilarning fanlar jumladan, axborot texnologiyalari fani asoslarini o'zlashtirish natijalariga qarab fikr yuritish zarur. Hozirgi paytda ularning bilim egallashlarida axborot-kommunikatsiya vositalaridan keng ko'lamda foydalanilmoqda. Ayniqsa, kompyuterda ishlash, turli tarmoqlardan kerakli ma'lumotlarni izlab topish va o'zlashtirib olish ularning qiziqarli mashg'ulotlariga aylanib bormoqda. Faqat bunda kompyuter savodxonligi mukammal bo'lishi talab etiladi. Bu ham innovatsion yondashuv bo'lib, ularda maxsus bilim, ko'nikma va malakalarning tarkib topishini taqozo etadi.

Hozirgi kunda ta'lim-tarbiya jarayonidagi xilma-xillik, mustaqillik, ongliklik, faollik, erkin va ijodiy fikrlash, o'zini namoyon etish, ilm-fandagi yangiliklardan xabardor bo'lish va yangilik yaratishga intilish bo'lajak bakalavr va magistr o'qituvchilarning turmush tarziga aylanib bormoqda. Bu muammolarni hal qilishni eng samarali usuli innovatsion ta'lim texnologiyalari ekanligi ma'lum bo'ldi.

Axborot texnologiyalaridan dars samaradorligini oshirishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'qituvchilarni tayyorlashga innovatsion yondashuv, uning usullarini mukammal egallash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda fan mashg'ulotlarini bosqichma-bosqich tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi bosqichda, u fan haqida asosiy ma'lumotlar keltiriladi.

Ikkinchi bosqichda, odatda davr talablarining eng dolzarb, munozarali masalalari muhokama qilinadi. Izlang, fikrlang ijod qiling, tarzida ish ko'riladi.

Uchinchi boschiqda, nazariy qoidalar ilgari surilgan chuqurlashtirilgan darajada bayon qilinadi. Ma'lumki, mustaqil ijodiy fikrlash o'qish mobaynida paydo bo'ladigan qiyinchiliklarni yengish jarayonida shakllanadi va rivojlanadi.

To'rtinchi bosqichda, teskari aloqa, bog'anish uchun material beriladi.

Beshinchi bosqichda, o'qituvchisi o'rgangan mavzularni to'g'ri tushunganligini nazorat qilinadi, ularda o'z-o'zini nazorat qilish uchun topshiriqlarning turli xil shakl (og'zaki savol-javob, yozma va test)lari qo'llaniladi va to'g'ri javoblar keltiriladi.

O'quvchilarning axborot texnologiyalari bo'yicha tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar oliy ta'lim tizimida axborot texnologiyalari kursining asosiy vazifasi – o'quvchilarni kelajak amaliy faoliyatida kompyuterlardan foydalana olishga tayyorlash va salohiyatini oshirishdan iborat.

Ushbu predmetni oliy ta'limda o'rganishdan asosiy maqsad kompyuter texnikasi imkoniyatlarini va uni hayotga qo'llashni biladigan, dasturlashning asosiy prinsiplarini o'zlashtirgan, kompyuter bilan muloqotda bo'la olish ko'nikmasiga ega bo'lgan va yangi axborot texnologiyasini tasavvur qila oladigan foydalanuvchini tayyorlashdan iborat.

Axborot texnologiyalarini o'rganish, axborot texnologiyalari haqida haqiqatni bilishni tavsiflash shakli va bilish metodi sifatida tasavvur qilib insonning madaniyati va iqtidorining shakllanishiga zamin yaratadi. Ta'lim tarbiyaning umumiy maqsadlaridan informatikaning fan sifatida o'ziga xosligi uning zamonaviy fanlar tizimida tutgan o'rni va rolidan hozirgi axborotlashtirilgan jamiyat hayotidagi ahamiyatidan kelib chiqqan holda informatikani o'qitish va o'quvchilarda iqtidorni shakllantirishning maqsadlarini quyidagicha belgilash mumkin:

- talabalarda kompyuter savodxonligini shakllantirish;

-talabalarda axborotga ishlov berish, uzatish va undan foydalanish jarayonlari haqidagi bilimlar asoslarini mustahkam va ongli ravishda o'zlashtirib olishlarini ta'minlash;

-talabalarga dunyoning zamonaviy ilmiy ko'rinishini shakllantirishda axborot jarayonlarining ahamiyatini, jamiyatning rivojida axborot va kommunikatsion texnologiyalarning rolini ochib berish;

-texnika asrida kompyuterlardan ongli va ratsional foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish.

Pedagogik innovatsiyaning vazifalari:

- o'qituvchi intellektual salohiyatini yanada takomillashtiruvchi test-savollar tizimlarni ishlab chiqish;

- o'qituvchi malakasini oshirish, talaba kasbiy fazilatlarini takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqishdagi ijodiy ishlarini rivojlantirishga erishish;

- test usullaridan ta'lim-tarbiya jarayonida keng foydalanish;

- elektron dasturlar va darsliklar hamda o'quv qo'llanmalari yaratishga erishish va ularni amaliyotga joriy etish;

- ta'lim-tarbiya jarayonining yangi axborotli va pedagogik texnologiyalarini qo'llash va unda sifat ko'rsatkichlari va samaradorlikni baholab borish;

- o'z mustaqil fikrini bayon qilishga shiroit yaratish va ularda tanqidiy fikrni bayon qilish imkoniyatlarini yaratish;

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi.

Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud.

Xulosa. Hozirgi zamon talabidan kelib chiqqan holda, yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda, o'qitishning pedagogik va axborot texnologiyalari asosida amalga oshirilishi ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim o'rin egallaydi. Ular qo'yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o'quv jarayoni rejalashtiradi va amalga oshiradi. O'quvchilarga vizual materiallar orqali hissiy ta'sir ko'rsatadi. Zero, mashg'ulotlarning muvaffaqiyatli o'tishining 80 foizi ta'lim jarayonini to'g'ri loyihalashtirish, tashkil etish va uni amalga oshirishga bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Walkenbach, J. (2015). *Excel Bible*. Wiley.
2. Microsoft Corporation. (2023). *Excel official documentation*.
3. Benninga, S. (2014). *Financial Modeling Using Excel*. MIT Press.
4. ExcelJet.net – *Excel formulas and functions guide*.
5. MURODOV, O. (2024). MODEL OF THE TEACHING PROCESS OF INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGIES ON THE BASIS OF AN INNOVATIVE APPROACH, IMPLEMENTATION MECHANISMS. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, 2(9), 309-317.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

6. Murodov, O. T. R. (2024). INFORMATIKA FANIDAN AMALIY MASHG ‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH: TAJRIBALAR VA NATIJALAR. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 1(2), 115-121.
7. Murodov, O. T. R. (2024). STEAM YONDASHUVI DOIRASIDA INFORMATIKA FANINI O ‘QITISHNING ISTIQBOLLARI. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 1(2), 59-65.
8. Murodov, O. T. R. (2024). INFORMATIKA DARSLARINI INTERAKTIV METODLAR YORDAMIDA TASHKIL ETISH. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 1(2), 101-107.
9. Murodov, O. T. R. (2024). INTERNET XAVFSIZLIGI BO ‘YICHA BILIMLARNI O ‘QUVCHILARGA YETKAZISH. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 1(2), 66-72.
10. Murodov, O. T. R. (2024). ALGORITMLARNI MAKTAB O ‘QUVCHILARIGA O ‘RGATISH: SAMARALI METODIKALAR. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 1(2), 87-93.
11. Murodov, O. T. R. (2024). ALGORITMLARNI MAKTAB O ‘QUVCHILARIGA O ‘RGATISH: SAMARALI METODIKALAR. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 1(2), 87-93.
12. Murodov, O. T. R. (2024). INFORMATIKA DARSLARIDA ZAMONAVIY O ‘QUV TEXNOLOGIYALARI VA VOSITALARIDAN FOYDALANISH. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 1(2), 80-86.
13. Murodov, O. T. R. (2024). RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI O ‘QUV JARAYONIGA INTEGRATSIYA QILISH USULLARI. *The latest pedagogical and psychological innovations in education*, 1(2), 108-114.
14. TO‘RAQULOVICH, M. O. (2025). ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI TA‘LIMDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI VA UNING ISTIQBOLLARI. *PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(2), 102-106.
15. To‘raqulovich, M. O. (2024). OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA AXBOROT KOMMUNIKASIYA TEXNOLOGIYALARI DARSLARINI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY USULLARDAN FOYDALANISH. *PEDAGOG*, 7(6), 63-74.
16. Muradov, O. (2024, January). IN TEACHING INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGIES REQUIREMENTS. In *Международная конференция академических наук* (Vol. 3, No. 1, pp. 97-102).